



## TIL TUSHUNCHASINING FALSAFADAGI AHAMIYATI

**Siddiqova Aziza Muxitdinovna**

*O'zJOKU O'zbek tili va adabiyoti  
kafedrası xodimi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola tilshunoslik to'g'risida ba'zi faylasuflarning falsafiy qarashlari, falsafaning tilshunoslikka ta'sir qilgan jihatlari bayon etilgan. Shuningdek, Grek va Rim notiqclarining til va nutq borasidagi fikrlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** til, jamiyat, falsafa, antik tilshunosligi, sotsiolingvistika.

**Аннотация:** В статье описаны философские взгляды некоторых философов на лингвистику, аспекты философии, оказавшие влияние на лингвистику. Также анализируются мнения носителей греческого и римского языка о языке и речи.

**Ключевые слова:** язык, общество, философия, античное языкознание, социолингвистика.

**Abstract:** The article describes the philosophical views of some philosophers on linguistics, aspects of philosophy that influenced linguistics. The opinions of Greek and Roman speakers about language and speech are also analyzed.

**Key words:** language, society, philosophy, ancient linguistics, sociolinguistics.

Lingvistik falsafa bilishning mohiyatini uning tildagi shaklidan ajratib qo'yib, falsafiy va lingvistik tadqiqotlarni qorishtirib yuboradi. Til kishilik jamiyatida yaratilgan aloqa vositasi sifatida xizmat qiladigan ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Uning ijtimoiy tabiati ayrim shaxsga emas, balki jamiyat uchun xizmat qilishda namoyon bo'ladi. Til insoniyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratgan barcha madaniy va ilmiy boyliklarini ifodalaydigan va avloddan avlodga meros qoladigan asosiy vositadir.

Jamiyatning eng muhim aloqa vositasi bo'lgan tilning bir butunligiga asoslanib, uni tirik organizmga o'xshatish noto'g'ridir. Til o'zining tuzilishi bilan, ayrim unsurlarining o'zaro munosabati bilan butun bir tizimni tashkil etadi. Til hayotiy bo'lishi uchun shu tildan foydalanadigan jamiyat zarur bo'ladi.

Odamlar so'zdan foydalanishadi, bunda ular so'z orqali o'zlari haq ekanliklariga bir-birlarini ishontiradilar va bir-birlariga ishonadilar. So'zdan foydalanganda ba'zi bir qoidalarga amal qiladilar. Bu qoidalar grammatika qoidalariga yoki hatto mantiq qoidalariga ham to'g'ri kelmaydi. (Bu yerda boshqa qoida – hayot qoidalari to'g'risida gap boradi).

Til – bu ijtimoiy hodisadir. Jamiyat rivojida til o'z mohiyatini ko'rsatadi. Til yana o'yin faoliyatining bir shaklidir. Aniq til o'yini oqibatini oldindan aytib bo'lmaydi.



Muayyan bir hodisani bayon etish uchun foydalaniladigan til o'yinlaridagi so'zlar hammaga taalluqli emas (ular to'la umumiylikka ham ega bo'lmaydi) [2;11].

Tilshunoslikning vujudga kelishida antik davridagi yunon-rim faylasuflarining o'rni beqiyosdir. Qadimgi yunonlarda til nazariyasi falsafaning bir bo'lagi deb qaralgan. Tarixchi va yunon ritorikasi professori Demosfen barcha texnikalarni o'zlashtirgani sababli tarixdagi buyuk notiqlardan biri deb tan olingan.

Mashhur notiq Sitseron: "Tarixda yo yaxshi harbiy sarkarda, yo yaxshi notiq bo'lish kerak", degan ekan. Bu gapda katta hikmat bor. G'arbiy sarkardaning itoatida ko'p sonli lashkar bo'lishini tasavvur qilsak, bu so'z tasodifiy o'xshatish emasligiga amin bo'lamiz. Grek va Rim notiqdori Aristotel, Demosfen, Sitseron, Kvintilian kabi nazariyotchilarning hayotiy tajribalari ham bunga misoldir. Ular kishilik jamiyatida ritorika va notqlik san'atining o'ziga xos maktabini yaratdilar. Sitseronning "Notqlik haqida", "Notiq", "Brut" asarlari, Mark Fabiy Kvintilianning "Notiq bilimi haqida", Aristotelning "Ritorika" kabi asarlari ham qadimgi Gretsiya va Rimda madaniy nutq, notqlik nazariyasi ancha rivojlanganligini ko'rsatadi. Demosfen ta'limotiga ko'ra, ko'plab hollarda inson o'z dunyoqarashini o'zgartirishni istamaydi, chunki dunyoqarashni o'zgartirish xatti-harakatni, turmush-tarzini o'zgartirishga olib keladi. Mazkur jarayonda tildan foydalanish ham turmush tarzini, xatti-harakatni u yoki bu jihatdan o'zgarishiga olib keladi. Shu jumladan, nutqiy harakat madaniyati muammosi to'rt savolga javobni qamrab oluvchi sohada mujassamlashgan. Bular:

1. Nima maqsadda so'zlaymiz?
2. Nima demoqchimiz?
3. Qanday vositalar yordamida so'zlaymiz ?
4. Nutqimizga munosabat qanday?

Birinchi savolga javob – nutqimiz maqsadini, ikkinchisiga javob – bo'lajak nutq g'oyasini, uchinchisiga javob – nutqning (yozma yoki og'zaki) muayyan matnini, to'rtinchisiga javob – tinglovchilar munosabatining notiq tomonidan qo'yilgan maqsadga muvofiqligini aniqlaydi. Demak, nima so'zlashimiz muhim ahamiyat kasb etadi, ammo qanday so'zlashimiz (qaysi vositalar bilan) yanada muhimroq. Faqat bir inson, ya'ni bir shaxs nutq manbasi bo'la oladi. Inson emas, uning shaxsi so'zlaydi. Ya'ni, muayyan nutqda notiq shaxsi shifrlangan bo'ladi.

Bu o'rinda Demokrit so'z va predmet o'rtasida moslik yo'q, balki o'rganish, odat mavjud deydi. [3;47].



U bunga asos qilib quyidagilarni aytadi:

1. Ko'pgina so'zlar bir necha ma'nolariga ega.
2. Ko'pgina tushunchalar bir necha nomlariga ega.
3. Bir so'z ikkinchi so'z bilan almashtirilishi mumkin.
4. Ko'pgina tushunchalarni so'z bilan ifoda qilib bo'lmaydi.

Dastlabki davrlarda yunon adabiyoti og'zaki "iste'mol qilish" uchun mo'ljallangan va shuning uchun kitoblarga yoki o'quvchilarga bog'liq bo'lmagan. Yunonistonga alifbo eramizdan avvalgi 800-yilda kirib kelgan bo'lsa-da, qadimgi Yunoniston ko'p jihatdan yozma so'zdan og'zaki so'z ustun turgan jamiyat bo'lgan.

Olam haqidagi axborotlarning katta qismi insonga til orqali yetib keladi. Inson tushunchalar olamida yashaydi. Tushuncha esa narsani real ko'rsatmasligi mumkin. Tushunchalar olami aqliy, ruhiy va ijtimoiy ehtiyoj natijasida yuzaga keladi. Bu olamga axborot so'z orqali kiradi.

Insonning jamiyatdagi yutuqlari uning so'zdan qanday foydalana olishiga bog'liq bo'lib qoladi. Muvaffaqiyatning sababi nutq madaniyati hamda tilning sirli olamiga kira olish qobiliyati bilan aloqadordir. Bu o'rinda aytish mumkinki, lisoniy shaxs nutqni yarata olish va idrok etish imkoniyatiga ega bo'lgan shaxsgina emas, u tilning grammatik xususiyatlarini, tilga xos ichki imkoniyatlarni yuzaga chiqaruvchi, tildan foydalanish jarayonida unga shaxsiy sifatlari doirasida ta'sir ko'rsatuvchi til egasi hamdir. Lisoniy shaxsga uning til birliklaridan qay tarzda foydalangan holda tuzgan matni asosida tavsif berish mumkin. Umumiy til tushunchasining shevadan farqi bor: til butun bir xalqqa xizmat qiladi, sheva esa xalqning bir guruhigagina taalluqli. Til ko'p vazifali, hamma uchun umumiy bo'lgan aloqa-munosabat vositasi, sheva esa, vazifa nuqtai nazaridan chegaralangan bo'lib, tilning nutqiy ko'rinishini tashkil etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N. Shermuhammedova. Falsafa va fan metodologiyasi. Toshkent, 2008.
2. Hamdamova A. Falsafa. – T., 2008.
3. N. Bekmirzayev. Nutq madaniyati va notiqlik asoslari (o'q'uv q'o'llanma) Toshkent «Fan» nashriyoti, 2007
4. ISCIENCE.IN.UA «Актуальные научные исследования в современном мире» \_Выпуск 12(44) ч. 3 ISSN 2524-0986 47
5. Xolmanova Z.T. Tilshunoslikka kirish Toshkent-2007

